

**O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA: OLIY TA’LIM
TRANSFORMATSIYASIDA STRATEGIK HAMKORLIKNING YANGI
BOSQICHI (1992-2026)**

Sayfullayev Samarbek Dilshod o‘g‘li
TIFT universiteti “Ijtimoiy-gumanitar
fanlar va tarix” kafedrası o‘qituvchisi
Mamajomova Muxtasar Saminjon qizi
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti Filologiya va tillarni
o‘qitish: koreys tili fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi strategik hamkorlikning 1992-yildan 2026-yilgacha bo‘lgan tarixiy bosqichlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Toshkentdagi Inha, Puchon, Adju kabi nufuzli universitetlar filiallarining tashkil etilishi, 2+2 qo‘shma ta’lim dasturlari hamda TOPIK tizimining yoshlar intellektual salohiyatini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada hamkorlikning yangi bosqichi sifatida raqamli ta’lim va BPO markazlarining rivojlanishi hamda Uchinchi Renessans poydevorini qurishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Koreya modeli, Smart, K-silk Road, KOICA, BPO, nazariyat-amaliyot, uchinchi renessans, GKS, TOPIK, 2+2, 3+1, Sejong markazi, inson kapitali, Adjou, Puchon, KIUF, tarixiy burilish, Xan daryosi mo‘jizasi, Kores mo‘jizasi.

Kirish: Talim - bilim berish malaka va konikmalarani xosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mexnatga tayorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiyalab amalga oshiriladi. Ta'lim tor manoda o'qitish tushunchasini anglatadi ,lekin u faqat turli yurtdagi o'quv yurtlarida o'qish jarayoni emas, oila ishlab chiqarish va boshqa sohalarida malumot berish jarayoniniham bildiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatleri, dunyoqarashi qobiliyati o'sadi. Avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni taminlaydi. Kishilarning ijtimoiy- tarihiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi

Bugungi kunda yangi O‘zbekistoni barpo etish yo‘lida amalga oshayotgan islohatlarning markazida shubxasiz ta’lim tizimi turganligi hechjumga sir emas. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "Yangi O‘zbekiston - Ostonasi maktabdan, ta’lim -tarbiya tizimidan boshlanadi. Aynan shu sababli hozirgi kundata'lim sifatini oshirish uchun yurtimizda turli xil davlatlar bilan xalqaro tajriba, xususan "Kores Mojizasining" asosi bo‘lgan Janubiy Koreya ta'lim modeli bilan integratsiyalashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nima uchun aynan Koreya: chunki

Janubiy Koreya tajribasi dunyo hamjamiyati uchun o'ziga hos namunadir. 1960 - yillarda tabiiy resurslari deyarli bo'lmagan, urushdan keyingi og'ir iqtisodiy inqirozni boshdan kechirgan Koreya atiga bir necha o'n yillikda dunyoning eng rivojlangan 10 ta davlati qatoriga kirdi. Ushbu sakrash tarixga "Xan daryosi Mojizasi" nomi bilan kirdi. Bu muvaffaqiyatning fundamentini esa aynan ta'lim isloxlari tashkil etdi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali va raqobatdosh tizimlardan biri deb hisoblangan. Bu talim tizimi qisqa vaqt ichida mamlakatni rivojlangan davlatga aylantirishda katta rol o'ynagan. Janubiy Koreyada ta'lim xalq uchun, davlat uchun milliy rivojlanish strategiyasining markazida turadi. Bunday natijaga erishish uchun davlat tomonidan katta mablag' jalb qilingan. Ustoz murabbiylarga keng imkoniyatlar berilgan. Koreyada ta'lim siyosati uzoq muddatli strategiya asosida yuritiladi va ta'lim iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili deb qaraladi. Davlatdagi oliy ta'lim universitetlari Osiyodagi eng nufuzli universitetlar hisoblanadi. Janubiy Koreya universitetlari shunday tizimga egaki sanoat korxonalarini, kompaniyalar bilan juda yaqin xamkorlik qiladi. Bundan maxsadda shuki o'qish davomida kompaniyalar bilan ilmiy amaliy loyihalar qilish, va o'qishni bitirgach talabalarning ishga joylashishidaxam amaliy yordam berish ko'zlangan. Bunday o'ziga hos oliy ta'lim tizimi orqali talabalar ham nazariy bilim bilan birga amaliy tajribaxam oladilar. Bu oliy ta'lim tizimi texnologiyalar bilan ham juda chanbarchas bog'liq bo'lib, talabalarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashini taminlaydi. Bu tizim har tamonlama samarali va murakkabki ,butun dunyo tan olgan, shu sababli O'zbekiston oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishda Koreya modeli eng maqbul yo'nalishlardan biri sifatida tanlagan

Bu hamkorlik shunchaki talabalar almashinuvi bilan cheklanib qolmay balki o'quv standartlarini modernizatsiya qilish, qo'shma fakultetlar ochish va yuqori texnologik kadrlar tayorlashni o'z ichiga oladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng 1992- yilda ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatila boshlaydi shu bilan birga ta'lim soxasida ham kelishuvlar bo'lib o'tadi. Aynan shu yil 1992- yilda Toshkent shaxrida Koreya Respublikasining ta'lim markazi o'z faoliyatini boshlaydi. Bu markaz dunyo miqiyosida Koreya ta'limini targ'ib etish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish maxsadda tashkil etilgan birinchi muassasalardan biri hisoblangan. Koreya ta'lim tizimi O'zbekistonga shu tariqa kirib kela boshlagan. Keyinchalik 2006- yil O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlarida keskin burilish bo'lib shu yil strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolangan bo'lib u barcha sohalar qatori ta'lim soxasigaham yangi turtki bergan. Bu shartnomada ta'lim va kadrlar tayorlash bo'yicha uzoq muddatli hamkorlik kelishilnad, shu bilan birga KOICA orqali O'zbekistonda kasb hunar ta'lim va axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxasislarni o'qitish dasturlari kengaytiriladi. Bu kelishuvlar doirasida O'zbekistonlik talabalarni Koreya universitetlarida grant asosida

taxsil olishi, hamda kores tili o'qituvchilarini O'zbekistonga jalb qilish bo'yicha ishlar jadalashdi. Bu kelishuvlar orqali davlatimiz biz yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Ta'lim soxasidagi o'zgarishlar va islohatlar to'xtab qolamadi bunga 2014-yildagi Koreya va O'zbekiston ta'lim soxasidagi "Tarixiy burilish" deb nomlangan yangi kelishuvni misol qilolaman. Bu kelishuvda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar darajasi strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish bosqichiga ko'tarilib bir qator yirik loyihalarga asos soldi. Eng yirik loyihalardan biri bu aynan 2026-yil 24-mart kunida O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-2156 sonli qarori bilan Toshkent shaxrida Janubiy Koreyaning nufuzli INXA universitetining filiali tashkil etildi. O'zbekistondagi Janubiy Koreya davlati bilan hamkorlikda ochilgan birinchi va eng yirik oliy ta'lim loyihasu bo'lib IT soxasida xalqaro standartdagi mutaxassislar tayorlay boshladi.

Bundan tashqari yana aynan shu yili iyun oyida Janubiy Koreya prezidenti Pak Kin Xenning Toshkent shaxriga tashrifi davomida strategik sheriklikning yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat ta'lim, madaniyat va gumanitar soxalardagi aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi va shu yildan boshlab O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida kores tili markazlarini kengaytirish va talabalar almashinuvini jadalashtirish bo'yicha yangi kelishuvlar kuchga kirdi.

Janubiy koreya va O'zbekiston o'rtasidagi ta'lim soxasidagi bunday hamkorlik ikki mamlakat uchunham bir qator afzaliklarga ega edi. Janubiy Koreya ta'lim soxasida ilg'or texnologiyalar va inovatsion usullar qo'llashda dunyoda yetakchi hisoblanadi. Bu hamkorlik O'zbekisto ta'lim tizimiga texnologiyalar va usullarni joriy etish imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Janubiy Koreyaning ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish tajribasini qo'llash orqali O'zbekiston o'zining ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini yaxshilash va zamonaviylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Janubiy Koreya ingliz tilu va boshqa xalqaro tillarni o'rgatish bo'yicha ilg'or tajribag ega. Bu soxadagi hamkorlik O'zbekiston o'quvchilarining xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishlarini ta'minlaydi. Janubiy Koreyaning rivojlangan kasb - hunar ta'lim tizimi O'zbekistonning ishchi kuchining malakasini oshirish va iqtisodiyotga moslashuvchanligini taminlashdahan muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Janubiy Koreya uchun afzaliklari: O'zbekistonning katta va tez rivojlanayotgan ta'lim bozori Janubiy Koreya ta'lim muassasalari va kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Janubiy Koreyaning O'zbekistondagi ta'lim loyihalari uning xalqaro miqyosdagi ta'sirini oshiradi va uning global ta'lim sohasidagi obrosini mustaxkamlaydi. O'zbekistondagi hamkorlik Koreyaning ta'lim texnologiyalari va metodlari uchun yangi bozor va sinov maydonchasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim

soxasidagi hamkorlik ikki mamlakat madaniyatlari o'rtasida almashinuvni kuchaytirishga va o'zaro tushunishni rivojlantirishga yordam beradi

Umuman olganda Janubiy Koreya va O'zbekiston o'rtasida ta'lim soxasidagi hamkorlik ikki mamlakat uchun ham o'zaro manfaatli bo'lib ta'lim sifatini yaxshilash, inovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Shu tariqa ikki davlat o'rtasidagi ta'lim soxasi mustaxkamlanib rivojlana boshladi. 2017 - 2020-yillarga kelib o'zbekiston va Janubiy Koreya ta'lim hamkorligida "Strategik yuksalish" davri bo'ldi. Bu yillarda hamkorlik shunchaki tajriba almashishdan keng ko'lamli tizim loyihalariga o'tdi. 2017- yil 22 - 25- noyabr kunlari Shavkat Mirziyoyevning Janubiy Koreya Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi ta'lim ta'lim soxasidagi xaqiqiy tub burilish bo'ldi. Bu tashrif shunchaki uchrashuv emasdi, balki "Maxsus strategik sheriklik" darajasiga ko'tarilgan yangi hamkorlik poydevorini qo'ydi. Bu tashrifda jami qiymati 10 milliard do'llardan ortiq bo'lgan 60 dan ziyod bitim va memorondumlar imzolandi. Ularning salmoqli qismi aynan ta'lim fan va yuqori texnologiyalar soxasiga tegishli bo'ldi. Bu uchrashuvdan keyin prizident Shavkat Mirziyoyev Koreya oliy ta'lim tizimini yanada chuqurroq o'rganib, O'zbekistondagi talabalarning birinchi kursdanoq mutaxassislik fanlariga yanada kirishib o'qishi shu bilan birga amaliyotgaham jiddiy urg'u berish tizimini joriy qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Bundan tashqari kasb - hunar ta'lim markazlari masalan Toshkent, Samarqant va Shaxrisabzdagi markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish va yangilarini ochish bo'yicha strategik rejalar tastiqlandi. 2014- yilda Toshkent shaxrida ochilgan INHA unversiteti o'ziga hos sinov loyihasi edi. Uning qisqa voht ichida yuqori nufuzga ega bo'lgani va zamonaviy IT kadrlarini yetkazib bera olgani "Koreya Modeli " O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l ekanligini isbotlagandan so'ng davlatimiz hamkorlikni faqat IT bilan cheklamay ta'limning barcha jabxalariga yoyishga qaror qildi.

Natijada 2018- yildan boshlab Koreya Respublikasining bir qancha nufuzli unversitetlari filyallari rasmiy ochilish jarayonlari boshlanib ketdi. Yangi unversitetlarni ochish bo'yicha oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Inom Majidov Koreya tomoni bilan muzokaralar o'tkazib Toshkent shaxrida Adju (Ajou) unversiteti va Puchon unversiteti filyallarini ochish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishdi. Bu boshlanishi edi keyinchalik nafaqat poytaxtda balki hududlardaham hamkorlikdagi yangi oliygohlar ochilishi va ko'plab qo'shma dasturlar imzolana boshladi. Bunga Farg'ona viloyatida ochilgan, Farg'ona viloyati hokimligi va Koreyalik investor professor Park Joon Ho o'rtasidagi kelishuv asosida 2019- yil 27- sentyabrda ochilgan KIUF unvesiteti yaqqol namunadir. Bu Koreya bilan hamkorlikda ochilgan unversitetlardan ko'zlangan asosiy maxsad nafaqat texnologiya balki iqtisodiyotning barcha drayver sohalari uchun Koreya standartidagi kadrlar tayorlash edi. Strategik maxsdlari esa Koreya ta'lim modelining asosi bo'lgan "nazariyat + amaliyot" tizimini

joriy etish bitiruvchilarga nafaqat O‘zbekistonda balki xalqaro miqyosda tan oladigon diplom olish, va oliy ta'limga zamonaviy laboratoriyalar va "Smart" o‘qitish tizimlarini olib kirish edi. Bu hamkorlikda ochilgan universitetlarning barchasi 2017- yildagi oliy darajadagi kelishuvlarning amaliy natijasi bo‘la oldi. Shunday qilib 2017- 2019- yillar davomida poydevori qo‘yilgan ushbu universitetlar hamkorlikning ilk amaliy mevalari bo‘ldi. Hatto 2020- yildagi global pandemiya sinovlaridam bu aloqalarani to‘xtata olmadi, aksincha ta'limni raqamlashtirish borasida yangi tajriba maydoniga aylandi.

Erishilingan muvaffaqiyatlar Janubiy Koreya ta'lim tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada mustaxkamlab hamkorlikni nafaqat universitetlar ochish balki butin tizimni yani maktabgacha ta'limdan tortib professional kasb- hunar o‘rgatishgacha bo‘lgan strategik bosqichga olib chiqish zaruriyati tug‘ildi.

Aynan shu maxsad yo‘lida 2021- yil 16- 18- dekabr kunlari davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga ikkinchi bor tashrif buyurdi. Bu tashrif davlatlar o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu tashrif davomida ta'lim, raqamlashtirish va inovatsion sohalar hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Bu sammit doirasida "to‘rtinchi sanoat inqilobi " ni rag‘batlantirish maxsada " raqamlashtirish " soxasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Bu maktab va oliy ta'lim tizimiga Koreya texnologiyalarini kengroq jalb qilishga hizmat qiladi. Prezident oliy ta'lim muassasalari o‘rtasida inovatsion hamkorlikni rivojlantirish uchun ikki davlat oliy ta'lim muassasalati rektorlarining doimiy forumini tashkil etishni taklif qildi. Bu tizimli muloqot o‘rnatish uchun muhim platforma bo‘ldi. 2021- yilgi tarixiy tashrifdan so‘ng 2022 - 2023 - yillar hamkorlikning miqdor ko‘rsatkichidan, sifat ko‘rsatkichiga o‘tish davri bo‘ldi. 2021- yildagi kelishuvlar shunchaku qogozda qolib ketmadi, balki 2022- 2023- yillarga kelib ta'limning barcha bo‘g‘inlarida o‘zining amaliy natijasini ko‘rsatdi. Asosiy etibor oliy ta'lim muassasalarini sonini oshirishdan ko‘ra ta'lim sifatini Koreya standartlariga to‘liq moslashtirish va profesional kadrlar tayorlashga qaratildi

Bundan tashqari bu yillarda KOICA Koreya xalqaro hamkorlik agantligi bilan Toshkent, Samarqant va Shaxrisabzdan tashqari Farg‘onadaham zamonaviy kasb - hunarga o‘qitish to‘liq ishga tushdi. Shu bilan birga tarixda ilk bor 2023- yil 27- mart kuni Toshkent shaxrida O‘zbekiston va Koreya rektorlar forumi bo‘lib o‘tdi. Unda Koreyaning 20 dan ortiq yetakchi universitetlari rektorlari ishtirok etdi. Ushbu forum natijasida O‘zbekistonning bir nechta nufuzli universitetlari jumladan O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universitetlari Koreya oliygohlari bilan 2+2 kabi qo‘shma dasturlar bo‘yicha o‘nlab bitimlar imzolandi. Mazkur dasturlarning o‘ziga xosligi talaba o‘qishning birinchi yarmini O‘zbekistonda qolgan yarmini esa Koreya davlatida davom etiradi va o‘qishni yakunida ikki davlatham tan oladigon nufuzli diplomlarga ega bo‘ladi. Albatta bu dasturlarning muvaffaqiyatli ishlashida Topik tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu tizim shunchaki imtihon emas, balki talabalar

uchun strategik imkoniyatlar eshigi vazifasini o'tamoqda. Negaki ushbu xalqaro sertifikat nafaqat 2+2 dasturlarida ta'lim olish, balki to'gridan to'gri Koreyaning nufuzli universitetlarida o'qish va davlat GKS grantlarini qo'lga kiritishdham asosiy kalit hisoblanadi.

O'zbekistonga bo'lgan bu tashrifdan keyin O'zbekistondagi o'nlab maktablardham kores tilini chet tili sifatida o'qitish ko'lami kengaydi. Toshkentdagi Sejong markazi va Koreya ta'lim markazlari orqalidham minglab yoshlar bepul til o'rganish va Koreyada o'qish uchun grantlar yutib olish imkoniyatigaham ega bo'ldilar. 2022- 2023- yildagi bu faollik shuni ko'rsatadiki O'zbekiston ta'lim tizimi endi nafaqat Koreya modelini o'rganmoqda balki uni o'z milliy xususiyatlariga moslab amaliy integratsiya qilmoqda. Bu esa 2024- 2026- yillarga mojalangan yanada ulkan strategik maxsaddlar uchun mustaxkam zamin yaratdi.

Ushbu zamin 2024- yilning iyun oyida Koreya Respublikasi prizidenti Yun Sok Yolning O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi bilan amaliy xarakterlar bosqichiga o'tdi. Mazkur tashrifda Janubiy Koreya prizidenti Yun Sok Yol Markaziy Osiyo uchun " K - Silk Road " (Koreya Markaziy Osiyo ipak yo'li) deb nomlangan yangi hamkorlik strategiyasini elon qildi. Tashrif davomida O'zbekistonda texnologiyali markazlar yaratish bo'yicha uch yillik strategik kelishuv qabul qilindi va Koreya tajribasi asosida O'zbekistonda zamonaviy texnologiyalar yuragi bo'lgan mikrochiplar va elektron sxemalar yaratish va shu soha bo'yicha kadrlar tayorlashga alohida urg'u berildi. Shu bilan birga sammit yakunida iqtisod va ta'lim soxalarini qamrab olgan 20 dan ortiq hukumatlar aro bitimlar imzolandi. Prizident Yun Sok Yolning tashrifidan so'ng kelishuvlarni amaliyotga ko'chirish vazifasi bevosita universitetlar zimmasiga tushdi. 2025- yilning boshida O'zbekistonning yetakchi oliygohlari rektorlaridan iborat delegatsiyaning Janubiy Koreya amalga oshirgan javob tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga yordam berdi. Ushbu tashrif asosan Koreyaning raqamli tizimlarini O'zbekiston universitetlarida to'liq joriy etish, Koreyaning yiril texnologik universitetlari jumladan KAIST va SNU tajribasi asosida yurtimizdagi texnik oliygohlarda eng zamonaviy yarm o'tkazgichlar va robototexnika laboratoriyalarini tashkil etish bo'yicha shartnomalar imzolandi va endilikda nafaqat talabalar balki profesor o'qtuvchilarningham Koreyada uzoq muddatli ilmiy tatqiqotlar olib borishi va tajriba otirishi uchun keng yo'llar ochildi.

Bu kabi faol muloqotlar natijasida bugungi kunda O'zbekistondagi ko'plab nufuzli universitetlarda 2+2 3+1 qo'shma dasturlari ishga tushgan. Bu dasturlar talabalarning nafaqat ikki davlat tan oladigon diplom olishi balki ish bilan taminlashdham yordam beradi. 2025 -2026- yillarga kelib ushbu dasturlarning bitiruvchilari uchun BPO (Business Process Outsourenng) markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Endilikda talabalar Koreya universitetlari diplomiga ega bo'lib, Koreyaga

bormasdan turib Toshkentdagi markazlarda Samsung, LG va Hyundai kabi gigant kompaniyalar uchun masofadan turib muxandislik va IT xizmatlarini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga oliy ta'limdagi bu muvaffaqiyatlar poydevorini mustaxkamlash maxsadida hamkorlik maktab tizimigaham kirib bordi. Bugungi kunga kelib Koreya tajribasi asosida chekka xududlardaham "Digital School" raqamli maktab loyixalarini joriy etib o'quvchilar boshlang'ich sinifdanoq robototexnika va dasturlash usullarini Koreya metodikasi bo'yicha o'rganmoqdalar. Bu esa kelajakda oliy ta'limdagi qo'shma dasturlarga intellektuall saloxiyati yuqori bo'lgan yangi avlodni tayyorlab bermoqda.

Kelajakda O'zbekiston yoshlari uchun Koreya oliygohlari filyallarini nafaqat poytaxtda balki chekka viloyatlardaham ko'paytirish lozim. Bu orqali qishloq yoshlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashini taminlash mumkun maktablardaham kores tilini o'qitishni yanada omalashtirish kereag deb o'ylayman negaki talabalarimizga kelajakda Koreyada amaliyot o'tashda til to'siqlarini bartaraf etishda yordam beradi. Bundan tashqari Ikki davlat o'rtasida faqat talabalar almashinuvi bilan cheklanmay proffesor, olimlarning ham qo'shma ilmiy laboratoriyalarini ko'paytirish, yangi ixtirolar ustida birga ishlash tizimini ham kuchaytirish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi ta'lim soxasidagi hamkorlik 2014- yildagi ilk qadamlardan bugungi kundagi keng ko'lamli strategik sheriklik darajasiga qadar ulkan va samarali yo'lni bosib o'tdi. Agar hamkorlikning dastlabki yillari faqatgina ayrim oliygohlarni filyallarini ochish bilan xarakterlangan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon butun ta'lim tizimini maktabgacha ta'limdan tortib, yuqori texnologiyali yarm o'tkazgichlar va suniy intellekt sohalarigacha qamrab oldi. 2024-yilda erishilingan oliy darajadagi kelishuvlar va 2025-2026-yillarga mojjalangan yangi loyihalar ushbu hamkorlikning naqadar mustahkam ekanini yana bir bor isbotladi. Koreya tajribasi asosida shakilanayotgan zamonaviy ta'lim modellari 2+2, 3+1 qo'shma dasturlari va inovatsion laboratoriyalar o'zbek yoshlari uchun jahon andozalari darajasida bilim olish imkonini yaratmoqda. Bu esa mamlakatimizda elon qilingan "Uchinchi renessans" poydevorini qurishda eng asosiy omil bo'lgan -inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zero Janubiy Koreyaning "Xan daryosi mo'jizasi" zamirida ham aynan shu ta'limga tikilgan sarmoya yotgan edi. Bugun O'zbekistonham huddi shu yo'ldan ishonch bilan bormoqda va bu hamkorlik kelajakda yurtimizning inovatsion va texnologik qiyofasini belgilab beruvchi "Oltin ko'prik" bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (Tashriflar va nutqlar).
2. Janubiy Koreyaning O'zbekistondagi elchixonasi veb-sayti.
3. KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) rasmiy portali.

4. TOPIK (Test of Proficiency in Korean) rasmiy sayti.
5. Lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. IUT (Inha University in Tashkent), BUT (Bucheon University in Tashkent), AUT (Ajou University in Tashkent) rasmiy saytlaridagi hamkorlik bo‘limlari.